


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-sentabr oylarida 1802,5 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **2128,8** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **118,7 %**), Jomboy tumanida **2278,1** ming so'mni (**126,4 %**) Urgut tumanida **1846,4** ming so'mni (**102,4 %**), tashkil etgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on shahrida **1771,2** ming so'mni (**98,3 %**), Nurobod tumanida **1663,7** ming so'mni (**92,3 %**), Ishtixon tumanida **1634,7** ming so'mni (**90,7 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1343,3	1802,5	134,2
Samarqand sh.	1694,1	2138,8	126,2
Kattaqo'rg'on sh.	1360,9	1771,2	130,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1117,4	1538,4	137,7
Bulung'ur	1169,1	1508,9	129,1
Jomboy	1526,7	2278,1	149,2
Ishtixon	1173,3	1634,7	139,3
Kattaqo'rg'on	1122,0	1538,8	137,1
Qo'shrabot	1059,6	1529,0	144,3
Narpay	1177,9	1553,0	131,8
Payariq	1078,7	1521,7	141,1
Pastdarg'om	1125,1	1540,7	136,9
Paxtachi	1045,1	1516,5	145,1
Samarqand	1071,9	1552,8	144,9
Nurobod	1204,3	1663,7	138,1
Urgut	1215,5	1846,4	151,9
Tayloq	1084,0	1516,1	139,9

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'sish sur'ati

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1738,2	1802,5	103,7
Samarqand sh.	2018,9	2138,8	105,9
Kattaqo'rg'on sh.	1710,2	1771,2	103,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1475,9	1538,4	104,2
Bulung'ur	1521,2	1508,9	99,2
Jomboy	2162,7	2278,1	105,3
Ishtixon	1614,8	1634,7	101,2
Kattaqo'rg'on	1484,8	1538,8	103,6
Qo'shrabot	1464,0	1529,0	104,4
Narpay	1448,2	1553,0	107,2
Payariq	1495,3	1521,7	101,8
Pastdarg'om	1550,2	1540,7	99,4
Paxtachi	1551,8	1516,5	97,7
Samarqand	1491,5	1552,8	104,1
Nurobod	1605,9	1663,7	103,6
Urgut	1816,9	2124,3	116,9
Tayloq	1490,5	1731,9	116,2

➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2948,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 97,6 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2049,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 20,5 % ga oshdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1642,4 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 95,2 % ni tashkil qildi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1391,1 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 14,8 % ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1983,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 26,8 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3762,5 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 34,3 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1700,0 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 26,4 % ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1445,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 33,6 % ga oshdi.


➤ **San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1487,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqos laganda 23,2 % ga oshdi.



➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1820,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqos laganda 22,0 % ga oshdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz, ming so'm)



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1 sentyabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.

Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(71) 230-85-36